

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 217 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich6 Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	205
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
Nomozova Qumri Isoyevna	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Nomozova Qumri Isoyevna

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi, v. v. b. prof

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

ORCID: 0009-0009-6116-765X

kumrinomozova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston sug'urta bozorida raqamli transformatsiya sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishning metodologik yondashuvlari bayon etiladi. Barqaror raqobat ustunligi jarayonlarni avtomatlashtirish, raqamli kanallarni kengaytirish hamda ma'lumotlar boshqaruvi va AI/analitika yechimlarini andarrayting va kleymlarda qo'llash orqali shakllanishi asoslanadi. Raqamli yetuklik indikatorlari asosida monitoring, kiberbarqarorlik, ekotizim integratsiyasi va inson kapitalini rivojlantirishni yagona siyosat paketi sifatida joriy etish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori; raqamli transformatsiya; raqobatbardoshlik; raqamli yetuklik; sun'iy intellekt; ma'lumotlar boshqaruvi; kiberbarqarorlik; ekotizim; andarrayting; kleymlar.

Abstract. The article proposes methodological approaches to improving the competitiveness of Uzbekistan's insurance market under digital transformation. It argues that sustainable advantage increasingly depends on process automation, digital distribution, and strong data governance, including the use of analytics and AI in underwriting and claims management. The study highlights the need to monitor digital maturity, cyber resilience, ecosystem integration, and human capital development as a coherent policy package to ensure competition grounded in trust, service quality, and financial stability.

Key words: insurance market; digital transformation; competitiveness; digital maturity; artificial intelligence; data governance; cyber resilience; ecosystems; underwriting; claims management.

Аннотация. Статья раскрывает методологические подходы к повышению конкурентоспособности страхового рынка Узбекистана в условиях цифровой трансформации. Показано, что устойчивое конкурентное преимущество формируется за счёт автоматизации процессов, развития цифровых каналов и повышения качества управления данными, включая применение аналитики и AI в андеррайтинге и урегулировании убытков. Обоснована необходимость мониторинга цифровой зрелости, киберустойчивости, экосистемной интеграции и развития человеческого капитала как единого пакета мер для перехода к модели конкуренции, основанной на доверии, качестве и финансовой устойчивости.

Ключевые слова: страховой рынок; цифровая трансформация; конкурентоспособность; цифровая зрелость; AI; управление данными; киберустойчивость; экосистемы; андеррайтинг; урегулирование убытков.

KIRISH

So'nggi yillarda global iqtisodiy globallashtirish, raqamli texnologiyalar hamda iste'molchilarning masofaviy xizmatlarga bo'lgan talabi sug'urta bozorini klassik "agentlik-ofis" modelidan raqamli ekotizim va platformali raqobat modeliga bosqichma-bosqich o'tkazmoqda. Yevropa nazorati amaliyotida raqamlashtirish sug'urtalovchilarning qiymat zanjiri tubdan qayta konfiguratsiya qilayotgani, ayniqsa ma'lumotlarga asoslangan qarorlar va avtomatlashtirilgan jarayonlar raqobatbardoshlikning yangi manbai bo'layotgani qayd etiladi. Shu bilan birga, OECD tahlillari raqamli vositalar mahsulot dizayni, risk-selektsiya, sog'liq va farovonlikka yo'naltirilgan servislarni orqali differensial raqobat ustunligini kuchaytirishini ko'rsatadi.

Mazkur tendensiyalar O'zbekiston sug'urta bozoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro reyting agentligi Fitch Ratings bahosiga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston sug'urta sektorida yalpi sug'urta mukofotlari (GWP) 21% ga oshib, 9 770 mlrd so'mni tashkil etgan. Milliy regul'yator - O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) tomonidan e'lon qilinadigan bozor ko'rsatkichlari ham 2024-yilda bozor

hajmining yiriklashuvi va qayta sug'urtalash oqimlari tarkibida sezilarli o'zgarishlar borligini tasdiqlaydi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar–aprel oylarida sug'urta xizmatlari hajmi 3,3 trln so'mni tashkil etib, 2024-yil mos davriga nisbatan 23,1% ga o'sgan. Ushbu raqamlar bozor o'sish sur'atlari yuqori ekanini ko'rsatsa-da, raqamli transformatsiya sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlash masalasi "faqat hajm o'sishi" bilan cheklanmaydi: xizmat sifati, tezkorlik, shaffoflik, xarajatlar samaradorligi, risklarni aniqlash aniqligi, kiberxavfsizlik va ma'lumotlar boshqaruvi raqobatning asosiy omillariga aylanmoqda.

Raqamli transformatsiya sug'urta kompaniyalariga uch yo'nalishda raqobat ustunligini beradi: operatsion xarajatlarni qisqartirish va jarayonlarni avtomatlashtirish, mijoz tajribasini shaxsiylashtirish va omnichannel xizmatni kengaytirish, risk-analitika va underwriting aniqligini oshirish orqali narxlash va portfel sifati boshqaruvi kuchaytirish. Xususan, GenAI va ilg'or analitika mijoz bilan muloqot, da'volarni ko'rib chiqish, hujjatlar bilan ishlash jarayonlarida samaradorlikni oshirishi bo'yicha xalqaro tahlillar mavjud. Biroq, AI va raqamli ekotizimlar bilan birga model riski, ma'lumotlar sifati, uchinchi tomon provayderlariga qaramlik, konsentratsiya va kiberxatarlar ham kuchayadi; moliyaviy barqaror raqobat aynan shu risklarni boshqarish darajasi bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston sug'urta bozori uchun metodologik muammo quyidagicha qo'yiladi, raqamli transformatsiya sharoitida "raqobatbardoshlik"ni faqat mukofotlar o'sishi bilan emas, balki raqamli yetuklik, xizmat ko'rsatish sifati, mahsulot innovatsiyasi, risk-menejment, reguliator talablariga muvofiqlik va iste'molchi manfaatlarini himoya qilish mezonlari bilan kompleks baholash talab etiladi. Amaliyotda esa ko'plab bozorlarda, jumladan rivojlanayotgan bozorlarda, raqamli transformatsiya natijasini o'lchash indikatorlari, raqobatbardoshlikni oshirish instrumentlari va ularning institutsional shartlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu holat, bir tomondan, NAPPning bozor statistikasi orqali dinamikani ko'rish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha kompaniya–bozor–nazoratchi kesimidagi metodologik "bog'lovchi" modelga ehtiyoj borligini anglatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston sug'urta bozori sharoitida raqamli transformatsiya orqali raqobatbardoshlikni oshirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish va baholash mezonlarini taklif etishdir. Tadqiqot natijasi sifatida sug'urtalovchi raqamli yetukligi va bozor raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiruvchi konseptual ramka; xalqaro amaliyot (EIOPA, OECD, IAIS, FSB/Geneva Association) yondashuvlari asosida indikatorlar tizimi; O'zbekiston bozorining rasmiy statistikasi (NAPP, Milliy statistika qo'mitasi) bilan mos keluvchi tahliliy yo'nalishlar shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston sug'urta bozorini modernizatsiya qilish, raqamli yechimlarni joriy etish hamda raqobatbardoshlikni oshirish masalalari bo'yicha mahalliy ilmiy maktabda bir nechta izchil yo'nalishlar shakllangan. Xususan, sug'urta bozorini institutsional rivojlantirish, mahsulotlar diversifikatsiyasi va bozor infratuzilmasini takomillashtirish masalalarida X. Shennaevning monografik tadqiqotlari sug'urta xizmatlari taklifi va talabini muvozanatlashtirish, kompaniyalar biznes-modelini yangilash hamda bozor mexanizmlarini kuchaytirish zaruratini asoslaydi.

Shu mantiqda O.T. Yuldashevning hayot sug'urtasini rivojlantirish bo'yicha konseptual ishlari (kapitallashuv, uzoq muddatli majburiyatlar, taqsimot kanallari va mijozlar ishonchi) raqamli kanallar orqali polis sotish va servis sifatini oshirish nuqtayi nazaridan mazkur maqola mavzusiga bevosita ulanadi.

Raqobatbardoshlikning muhim determinanti sifatida sug'urta mahsulotlari sifatini boshqarish, risklarni baholash va anderryting jarayonlarida ma'lumotlar bilan ishlash salohiyatini kuchaytirish masalalariga I.X. Abduraxmonovning javobgarlikni sug'urtalash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha yondashuvlari metodik asos beradi: bunda riskni klassifikatsiya qilish, tarif siyosati va shartnoma intizomi raqamli monitoring va analitika vositalari bilan uyg'unlashganda bozor raqobati keskinlashadi.

N.A. Mavrulovning umumiy sug'urta segmentini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlari esa bozorning ommaviy mahsulotlarida servis tezligi, da'volarni ko'rib chiqish samaradorligi va mijoz tajribasi raqamli transformatsiya sharoitida raqobatning asosiy maydoniga aylanishini ko'rsatadi.

Mahalliy mualliflar korpusida sug'urtada moliyaviy texnologiyalar, raqamli transformatsiya va innovatsiyalarni bevosita yoritgan ishlar ham mavjud. Masalan, K. Ikramova sug'urtada moliyaviy texnologiyalarni qo'llash, raqamli transformatsiya va innovatsiyalar mavzusida amaliy yo'naltirilgan xulosalar beradi; U. Imomov sug'urta mahsulotlarida moliyaviy texnologiyalarni qo'llash istiqbollarini ko'rsatadi; X. Shadmanov esa O'zbekiston sug'urta bozorida raqamlashtirish yo'nalishlarini alohida mavzu sifatida ajratib tahlil qiladi.

Ushbu ishlar, odatda, "sun'iy intellekt", "katta ma'lumotlar", "blokcheyn", "raqamli platforma" kabi texnologiyalarni sug'urta qiymat zanjiriga tatbiq etish orqali transaksion xarajatlarni qisqartirish, xizmat ko'rsatish tezligini oshirish va firibgarlik risklarini pasaytirish imkoniyatlarini nazariy-amaliy jihatdan asoslaydi.



Shu bilan birga, O'zbekiston sug'urta bozorining transformatsiyasini metodologik jihatdan izohlovchi yondashuvda milliy sug'urta bozorini samarali rivojlantirish uchun "iqtisodiy ekotizimlar" modelini ishlab chiqish g'oyasi ilgari suriladi; mazkur mantiq maqolamizning raqobatbardoshlikni oshirish konsepsiyasiga tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda sug'urta bozorining raqamli transformatsiyasi, avvalo, qiymat zanjiri (mahsulot dizayni → sotuv kanallari → anderrayting → da'volarni ko'rib chiqish → qayta sug'urtalash va kapital boshqaruvi) kesimida o'rganiladi. Martin Eling va Martin Lehmannning fundamental sharh tadqiqoti sug'urta qiymat zanjiri bo'ylab raqamlashtirishning samaradorlik, xarajatlar strukturasini optimallashtirish, mijozga yo'naltirilganlik va yangi risklarning sug'urtalanishi (xususan, kiber risklar)ga ta'sirini tizimli ravishda umumlashtiradi; bu yondashuv raqobatbardoshlikni "operatsion samaradorlik + mijoz tajribasi + riskni boshqarish" uchligi sifatida talqin etish imkonini beradi.

Regulyator va xalqaro institutlar hisobotlari raqamlashtirishning xavf-xatarlar blokini aniqroq ochib beradi. EIOPaning Yevropa sug'urta sektorini raqamlashtirish bo'yicha hisobotida raqamli loyihalar bilan bir qatorda kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, texnologik o'zgarishlar tezligi sharoitida nazorat (superviziya) yondashuvlarini yangilash zarurati asosiy yo'nalish sifatida qayd etiladi. OECDning "Global Insurance Market Trends" turkumidagi hisobotlari sug'urta bozorlarining makroko'rsatkichlari, premiyalar dinamikasi, investitsiya daromadliligi va sektor barqarorligi bo'yicha xalqaro qiyoslash bazasini beradi; bu esa raqobatbardoshlikni baholashda benchmarking metodologiyasini kuchaytiradi. IAI Sning global sug'urta bozori bo'yicha monitoring hisobotlari (GIMAR) esa reinsurance segmenti, kapital va risk ekspozitsiyalari bo'yicha global kuzatuv natijalarini jamlaydi.

Sug'urtada sun'iy intellekt va algoritmik boshqaruvning kengayishi kontekstida FSBning AI qabul qilinishi va unga bog'liq zaifliklar bo'yicha materiallari sug'urta bozorida raqobat "tezlik" bilan birga "ishonchlilik" va "boshqaruv sifati"ga ham tayanishini ko'rsatadi. Geneva Association'ning generativ sun'iy intellektning sug'urta "mijoz yo'li"ga ta'siri bo'yicha hisobotlari esa mijozlar tezkorlikni istashi bilan birga insoniy empatiya va tushuntiriladigan qarorlar ham talab qilishini empirik so'rovlar orqali asoslaydi.

Amaliy samaradorlik ko'rsatkichlari nuqtayi nazaridan Swiss Re Institute raqamli transformatsiya loyihalari yo'qotishlar koeffitsiyenti bo'yicha bir necha foiz punkt yaxshilanishi hamda qiymat zanjirining ayrim bo'g'inlarida 10–20%gacha tejamkorlik maqsad qilinishini ta'kidlaydi; bu, metodologik jihatdan, raqobatbardoshlikni "xizmat sifati va xarajatlar samaradorligi" mezonlari orqali o'lchashga asos beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi raqamli transformatsiya sharoitida sug'urta bozorining raqobatbardoshligini "faqat bozor hajmi" bilan emas, balki sug'urtalovchilarning raqamli yetukligi, xizmat ko'rsatish samaradorligi va risklarni boshqarish sifati bilan birgalikda izohlaydigan integratsiyalashgan tahliliy ramkaga asoslanadi. Ushbu yondashuvda sug'urta bozori transformatsiyasi ikki yo'nalishli jarayon sifatida qaraladi: bir tomondan, kompaniya ichki biznes-jarayonlarining raqamlashtirilishi, ikkinchi tomondan esa sug'urtalovchilarning bank, savdo, transport, sog'liqni saqlash kabi sektorlar bilan o'zaro hamkorligining kuchayishi; aynan shu nuqtada sug'urta ekotizimlari institutsional yechim sifatida shakllanadi.

Bunday talqin raqobatbardoshlikni raqamli kanallar orqali "tezlik–shaffoflik–moslashtirish–integratsiya" kombinatsiyasi, shuningdek, ma'lumotlarga tayangan risk-analitika orqali "aniqlik–barqarorlik" kombinatsiyasi sifatida metodologik jihatdan asoslash imkonini beradi.

Tadqiqot dizayni normativ-institutsional hamda bozor natijalarini birlashtiruvchi "ko'p darajali" mantiqda quriladi. Makro darajada raqamli transformatsiyaning siyosiy-iqtisodiy shartlari raqobat muhiti va bozor intizomini shakllantiruvchi omillar sifatida qabul qilinadi. Mikro darajada esa sug'urtalovchi tashkilotlarning raqamli yetukligi, ya'ni raqamli kanallar ulushi, jarayonlarning avtomatlashtirilganligi, ma'lumotlar boshqaruvi va analitika salohiyati, uchinchi tomon texnologik provayderlariga bog'liqlik hamda kiberxavfsizlik boshqaruvi kabi parametrlar raqobat natijalariga ta'sir etuvchi asosiy determinantlar sifatida operatsionlashtiriladi. Ushbu yondashuv tanlanishining mantiqiy asosi shundan iboratki, amaldagi an'anaviy sug'urta modeli ko'pincha yuqori operatsion xarajatlar va mijoz bilan o'zaro aloqalarning cheklangan samaradorligi bilan tavsiflanadi; raqamli transformatsiya esa aynan shu "samaradorlik bo'g'ini"ni qayta qurishni talab qiladi.

Ma'lumotlar bazasi shakllantirishda milliy rasmiy statistika va regulyator ochiq ma'lumotlari ustuvor tamoyil sifatida qabul qilinadi: O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha rasmiy yig'ma ko'rsatkichlar, kompaniyalar kesimidagi agregat indikatorlar hamda bozor segmentlari dinamikasi regulyator va rasmiy statistika manbalaridan olinadi; xalqaro qiyoslash va metodik moslashtirishda esa xalqaro institutlar yondashuvlari "benchmarking" vazifasini bajaradi. Bunda maqsad O'zbekiston sharoitiga mos, biroq xalqaro talqin bilan solishtiriladigan raqobatbardoshlik konstruksiyasini shakllantirishdir.

Empirik strategiya raqobatbardoshlikni ikkita o'zaro bog'liq blok orqali baholashga tayanadi. Birinchi blok bozor natijalari va raqobat intensivligini ifodalovchi ko'rsatkichlar majmuasidan iborat bo'lib, ular bozor o'sishi, segmentlar dinamikasi, bozor konsentratsiyasi va xizmatlar natijadorligi kabi yo'nalishlarda talqin qilinadi; bu ko'rsatkichlar iqtisodiy siyosat va bozor institutsional sharoitlari bilan bog'langan holda izohlanadi. Ikkinchi blok sug'urtalovchilar raqamli yetukligini ifodalovchi kompozit baholash mantiqiga quriladi raqamli yetuklik indeksi "mijoz yo'li"ning raqamlashtirilganligi, jarayonlarning avtomatlashtirish darajasi, ma'lumotlar bilan ishlash salohiyati hamda integratsiyalashgan platforma hamkorlik darajasi kabi subkomponentlarning standartlashtirilgan qiymatlari asosida shakllantiriladi. Bu yerda konseptual tayanch sifatida sug'urta ekotizimi yondashuvi olinadi: ekotizim "o'zaro bog'langan elementlar majmui" sifatida qaralib, u hududiy va institutsional muhitda xizmatlar integratsiyasi orqali qiymat yaratadi.

Ko'rsatkichlarni standartlashtirish va agregatsiya qilishda metodologik qat'iylilikni ta'minlash uchun barcha o'lchovlar bir xil shkala va taqqoslanadigan birliklarga keltiriladi; so'ngra kompozit indekslar vaznlashtirishning nazariy-mantiqiy asoslangan sxemasi asosida yig'iladi. Vaznlarni tanlashda xalqaro hisobotlarda keng tarqalgan "mijozga yo'naltirilganlik–operatsion samaradorlik–risk boshqaruvi" triadasi metodik yo'l-yo'riq sifatida olinadi, chunki raqamli transformatsiya bozor raqobatini aynan shu uch kanal orqali kuchaytiradi. Natijalarni barqarorlik nuqtayi nazaridan tekshirish maqsadida kompozit indekslar uchun sezgirlik tahlili amalga oshiriladi ayrim subkomponentlar vazni o'zgartirilganda yakuniy baholashning qanchalik o'zgarishi aniqlanadi.

Raqobatbardoshlik va raqamli yetuklik o'rtasidagi bog'liqlikni empirik baholashda korrelyatsion va regressiyaviy mantiq qo'llanadi. Modelning umumiy g'oyasi shundan iboratki, bozor raqobat natijasi raqamli yetuklik indeksi bilan bir qatorda nazorat o'zgaruvchilar orqali izohlanadi. Mazkur yondashuv O'zbekiston bozorida transformatsiya jarayonlari "faqat texnologiya" bilan emas, balki institutlar va bozor tuzilmasi bilan birgalikda shakllanishini hisobga oladi, ya'ni raqamlashtirishning samarasi sug'urtalovchining ichki transformatsiyasi va tarmoqlararo integratsiyasi bir vaqtda ro'y berganda kuchli namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sug'urta bozori raqamli transformatsiya sharoitida raqobatbardoshlikni asosan uch kanalda namoyon etmoqda: birinchidan, bozor hajmi va kapital bazasining o'sishi; ikkinchidan, taqsimot kanallarining tarkibiy siljishi (klassik agentlik modelining qisqarishi va masofaviy sotuvlar ulushining oshishi); uchinchidan, investitsiya portfeli tarkibida risk-profil va likvidlikning qayta muvozanatlanishi. Mazkur bo'limda tahlilning empirik asosi sifatida regulyator - O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) e'lon qilgan 2024–2025-yillar bo'yicha "Sug'urta bozori ko'rsatkichlari" (choraklik/yarim yillik) ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining sug'urta xizmatlari bo'yicha rasmiy statistik axboroti qabul qilindi.

NAPP ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar-iyun davrida sug'urta mukofotlari 6,2 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilning shu davriga nisbatan 4,3 trln so'mdan 6,2 trln so'mga oshgan; bu o'sish bozor miqyosida raqobatning kuchayishi bilan birga, portfellarni kengaytirish, mahsulotlarning tijorat jozibadorligini oshirish va sotuv kanallarini optimallashtirish jarayonlari bilan izohlanadi. Milliy statistika qo'mitasi ham 2025-yil yanvar-aprel oylarida sug'urta xizmatlari hajmi 3,3 trln so'mni tashkil etganini hamda 2024-yil mos davriga nisbatan 23,1% o'sish qayd etilganini bildiradi; bu makrostatistika sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning kengayib borayotganini tasdiqlaydi.

Raqobatbardoshlikning muhim institutsional asosi - kapital va investitsiya resurslarining yetariligi. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra sug'urta tashkilotlarining jamlanma ustav kapitali 3 128 568 mln so'mga yetib, 2024-yil 1-iyuldagi 2 347 399 mln so'mga nisbatan 33,3% oshgan. Xuddi shu davrda jamlanma investitsiyalar 6 111 360 mln so'mdan 8 340 216 mln so'mga ko'tarilib, 36,5% o'sishni ko'rsatgan; portfel tarkibida depozitlar ulushi 60,9% (2024-yil 66,3%dan pasayish) bo'lib qolgan holda, ko'chmas mulk ulushi 18,7% gacha oshgani (2024-yil 9,8%) investitsiya strategiyalarida diversifikatsiya va aktivlar strukturasining qayta sozlanayotganidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari va raqobatbardoshlik proksilari (2024-yil yanvar-iyun vs 2025-yil yanvar-iyun)

Ko'rsatkich (NAPP)	2024-y. yanvar–iyun (01.07.2024 holatiga)	2025-y. yanvar–iyun (01.07.2025 holatiga)	O'zgarish
Sug'urta mukofotlari (mln so'm)	4 300 000 mln so'm ($\approx 4,3$ trln)	6 200 000 mln so'm ($\approx 6,2$ trln)	$\approx +44,2\%$
Sug'urta to'lovlari ($\approx$ trln so'm)	1,1 trln so'm	1,2 trln so'm	$\approx +9,1\%$
Jamlanma ustav kapitali (mln so'm)	2 347 399	3 128 568	+33,3%
Jamlanma investitsiyalar (mln so'm)	6 111 360	8 340 216	+36,5%
Investitsiya tarkibi: depozitlar ulushi	66,3%	60,9%	-5,4 p.p.




Investitsiya tarkibi: ko'chmas mulk ulushi	9,8%	18,7%	+8,9 p.p.
Sug'urta agentlari (son)	4 161	3 442	-17,3%
Brokerlar (son)	10	11	+10,0%
Aktuariylar (son)	5	7	+40,0%

Manba: NAPP, "Insurance Market Indicators ... (II chorak 2025)" ma'lumotlari asosida hisob-kitob va tizimlashtirish.

Raqamli transformatsiya va raqobat muhitidagi sifat o'zgarishlarini baholashda bevosita "raqamli ulush" statistikasi har doim ham ochiq e'lon qilinavermaydi. Shunga qaramay, NAPPning kadrlar va bozor infratuzilmasi bo'yicha ko'rsatkichlari raqamli kanallashuvning muhim proksilarini beradi: 2025-yil 1-iyul holatida sug'urta agentlari soni 4 161 tadan 3 442 taga kamaygan (-17,3%), brokerlar soni esa 10 tadan 11 taga (+10,0%) ko'paygan, aktuariylar 5 tadan 7 taga (+40,0%) oshgan. Bu tendensiya bozorning "ko'p sonli agentlik sotuvlari"dan ko'ra, ko'proq professional vositachilik, risk-analitika va hisob-kitob intizomiga tayanuvchi modelga o'tish ehtimolini kuchaytiradi; amaliy jihatdan bunday o'zgarishlar masofaviy sotuvlar, raqamli anderrynting, kleymlar jarayonini avtomatlashtirish hamda ma'lumotlarga asoslangan tariflash kabi raqobat instrumentlari bilan uyg'unlashganda bozor samaradorligini oshiradi. Xalqaro reyting tahlilida ham O'zbekistonda mukofotlar o'sishi fonida underwriting-risk darajasi yuqori segmentlarning kengayishi va nazorat talablari kuchayishi ehtimoli qayd etilgani raqamli transformatsiyani "tez o'sish" emas, balki "barqaror va nazorat qilinadigan o'sish" mantiqida olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Bozor tarkibiy nisbatlari raqobatbardoshlikning real konturlarini yanada aniqroq beradi. 2025-yil yanvar–iyun yakunlariga ko'ra mukofotlar tarkibida ixtiyoriy sug'urta ulushi 79%ni, majburiy sug'urta 16%ni, hayot sug'urtasi 5%ni tashkil etadi. Bu holat raqobatning markazi, asosan, ixtiyoriy segmentda shakllanayotganini anglatadi, aynan shu segmentda mahsulot innovatsiyasi, raqamli servislar, tezkor sotuv va shaffof kleymlar boshqaruvi orqali kompaniyalar differensial ustunlikka erishadi (1-rasm).



Rasm 1. O'zbekiston sug'urta bozorida mukofotlar va to'lovlar tarkibi

Diagrammada har bir yil uchun ikki xil ustun berilgan: chap tomonda — mukofotlar, o'ng tomonda — to'lovlar. Ustunlar ichida segmentlar bo'yicha ulushlar nafaqat foizda, balki real hajmda (trln so'm) aks ettirilgani sababli, raqobat muhitida qaysi segmentlar "asosiy hajm generatori" ekani va to'lov intizomi qaysi yo'nalishda shakllanayotganini aniqlash imkonini beradi. Xususan, 2023-yil H1da mukofotlar tarkibida hayot sug'urtasi ulushi nisbatan yuqori bo'lgani (31%), 2024–2025-yillarda esa ixtiyoriy sug'urta segmenti dominantlashgani (79%) bozor raqobati markazining ixtiyoriy segmentga siljiganini ko'rsatadi. To'lovlar tarkibida ham ixtiyoriy segmentning ulushi yuqori bo'lib qolmoqda, biroq 2025-yil H1da hayot sug'urtasi bo'yicha to'lovlar ulushining oshishi (6%) risklar va portfel tuzilmasi dinamikasining o'zgarayotganini anglatadi. Ma'lumotlar NAPPning 2024-yil II chorak (H1 2023–H1 2024 taqqos) hamda 2025-yil II chorak (H1 2024–H1 2025 taqqos) rasmiy hisobotlaridagi "Sug'urta mukofotlari" va "Sug'urta to'lovlari" bo'yicha umumiy hajm va tarkib ko'rsatkichlari asosida qayta hisoblandi.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston sug'urta bozori raqamli transformatsiya sharoitida miqdoriy jihatdan tez kengayayotganini, biroq raqobatbardoshlikning kelgusi bosqichini belgilovchi omillar endilikda "hajm o'sishi"dan ko'ra "sifatli raqobat" mezonlari bilan chambarchas bog'lanayotganini ko'rsatdi. NAPP rasmiy statistikasi asosida 2025-yil yanvar–iyun davrida mukofotlar 6,2 trln so'mga yetgani, jamlanma ustav kapitalining 3 128 568 mln so'mga ko'tarilgani va investitsiyalar 8 340 216 mln so'mga yetgani bozor resurs bazasi kengayayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bozor tarkibida ixtiyoriy sug'urta segmentining 79% ulush bilan dominantlashuvi, raqobatning asosiy maydoni aynan shu segmentda shakllanayotganini va raqamli yechimlarning eng katta iqtisodiy samarasi ham shu yerda yuzaga chiqishini anglatadi.

Xalqaro yondashuvlar bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya sug'urta bozorida raqobatbardoshlikni uch asosiy mexanizm orqali oshiradi, operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish hisobidan xarajatlar samaradorligini kuchaytirish; mijoz yo'lini raqamli kanallar orqali qisqartirish va shaxsiylashtirish hisobidan xizmat sifati hamda mijoz qoniqlanishini oshirish; ma'lumotlarga asoslangan andarrayting va tarflash orqali riskni aniqroq baholash hamda portfel barqarorligini ta'minlash. Biroq ushbu afzalliklar bilan bir qatorda, raqamli ekotizimlar va sun'iy intellektdan foydalanish uchinchi tomon provayderlariga qaramlik, konsentratsiya, model xatolari, ma'lumotlar sifati hamda kiberxavfsizlik risklarini kuchaytirishi mumkin; demak, raqobatning barqarorligi "tezkor innovatsiya" va "risk boshqaruvi sifati" o'rtasidagi muvozanatga bog'liq.

O'zbekiston sharoitida metodologik va amaliy jihatdan asosiy xulosa shundan iboratki, sug'urta bozorining raqobatbardoshligini oshirish siyosati ikki yo'nalishda uyg'un yuritilishi zarur, birinchisi, raqamli transformatsiyani jadallashtiruvchi infratuzilma va institutlar; ikkinchisi, raqamli transformatsiyaning "ishonch omili"ni mustahkamlovchi nazorat va boshqaruv standartlari. Tadqiqotda taklif etilgan kompozit yondashuv bozor va kompaniyalar kesimida raqobatbardoshlikni o'lchashni faqat mukofotlar o'sishi bilan cheklamasdan, servis tezligi, shaffoflik, tarif intizomi, kleymlar jarayonining samaradorligi va kiberbarqarorlik kabi mezonlar bilan bog'lash zarurligini ilmiy asoslaydi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, regulyator darajasida (NAPP) bozorni monitoring qilishda an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda "raqamli yetuklik indikatorlari"ni ham joriy etish maqsadga muvofiq, masofaviy kanallar orqali tuzilgan shartnomalar ulushi, kleymlar bo'yicha o'rta ko'rib chiqish muddati, raqamli identifikatsiya va elektron hujjat aylanishi ulushi, mijoz murojaatlariga javob berish tezligi, shikoyatlar ulushi va ularni hal qilish sifati kabi indikatorlar bozorining raqobat sifati va iste'molchi manfaatlarini himoya qilish darajasini o'lchashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv EIOPAning iste'molchi trendlarini monitoring qilish amaliyoti va bozor raqamlashtirishini baholash mantiqi bilan uyg'un keladi.

Ikkinchidan, sug'urtalovchi kompaniyalar darajasida raqamli transformatsiya loyihalari "alohida IT-loyiha" sifatida emas, balki qiymat zanjiri bo'yicha end-to-end qayta dizayn sifatida boshqarilishi zarur. Bunda eng yuqori iqtisodiy samara, odatda, kleymlar jarayonini avtomatlashtirish, firibgarlikka qarshi analitika, andarraytingda risk-seleksiya sifatini oshirish hamda omnichannel servisni yo'lga qo'yish orqali yuzaga chiqadi; bu esa ixtiyoriy sug'urta segmentida mahsulot differensiasiyasi va tezkor servis orqali raqobat ustunligini shakllantiradi.

Uchinchidan, sun'iy intellekt va generativ sun'iy intellektdan foydalanishning institutsional bazasi kuchaytirilishi shart. Amaliyotda bu "model riskini boshqarish" siyosati, ma'lumotlar sifati bo'yicha minimal standartlar, algoritmik qarorlar izohlanishi, diskriminatsiya risklarini cheklash va kiberxavfsizlikning qat'iy protokollarini anglatadi. FSBning AI bo'yicha monitoring yondashuvi va Geneva Association tahlillari shuni ko'rsatadiki, AI raqobat ustunligini bersa-da, iste'molchi ishonchi va regulyator talablari bilan moslik ta'minlanmasa, reputatsion va moliyaviy yo'qotishlar ehtimoli ortadi. Shu bois O'zbekiston bozorida AI qo'llanilishi uchun minimal boshqaruv talablarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, bozor raqobatbardoshligini "ekotizim" yondashuvi orqali kuchaytirish zarur: sug'urta kompaniyalari banklar, to'lov tizimlari, avtoservislar, tibbiy provayderlar va elektron savdo platformalari bilan API-integratsiyalarni kengaytirishi natijasida polis sotishdan tortib kleymlar to'lovigacha bo'lgan jarayon qisqaradi, transaksion xarajatlar pasayadi va mijoz tajribasi yaxshilanadi. Bunday integratsiya, ayniqsa, majburiy sug'urta turlarida (DTP bilan bog'liq kleymlar) hamda ommaviy ixtiyoriy mahsulotlarda raqobatni "tezkorlik va shaffoflik" mezonlariga ko'chiradi.

Beshinchidan, inson kapitali va professional infratuzilmani kuchaytirish raqobatbardoshlikning ajralmas shartidir. NAPP ma'lumotlarida aktuariylar soni oshgani bozorining riskga asoslangan yondashuvga ehtiyojini ko'rsatadi; endilikda data-analitika, kiberxavfsizlik, andarrayting analitikasi, raqamli mahsulot dizayni kabi kompetensiyalarni kengaytirish talab etiladi. Bu borada milliy ta'lim va professional sertifikatsiya tizimlari (aktuariy va risk-menejment yo'nalishlari) raqamli sug'urta kompetensiyalarini ham qamrab olishi maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida, O'zbekiston sug'urta bozorida raqamli transformatsiya raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy drayveriga aylanmoqda, biroq ushbu raqobat "barqaror" bo'lishi uchun raqamli yetuklik indikatorlari



asosida monitoring, AI va ma'lumotlar boshqaruvi bo'yicha boshqaruv standartlari, kiberbarqarorlik, ekotizim integratsiyasi va inson kapitalini rivojlantirish yagona siyosat paketi sifatida qo'llanishi lozim. Shu yo'l bilan bozor o'sishi "tezlik" bilan birga "ishonch", "sifat" va "moliyaviy barqarorlik" mezonlariga tayangan raqobat modeliga o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi "Sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412 qarori.
2. Shennaev, X. M. (2021). O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari (monografiya). Toshkent: "Iqtisod-moliya".
3. Yuldashev, O. T. (2022). O'zbekistonda hayot sug'urtasini rivojlantirishning konseptual asoslari (doktorlik dissertatsiyasi). Toshkent: TMI.
4. Abduraxmonov, I. X. (2010). O'zbekiston Respublikasida javobgarlikni sug'urtalash amaliyotini takomillashtirish (dissertatsiya avtoreferati). Toshkent.
5. Mavrulova, N. A. (2023). Umumiy sug'urta sohasini rivojlantirish yo'nalishlari (doktorlik dissertatsiyasi). Toshkent: TMI.
6. Ikramova, K. (2025). Sug'urtada moliyaviy texnologiyalar: raqamli transformatsiya va innovatsiyalar. Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 4-son.
7. Eling, M., va Lehmann, M. (2018). Raqamlashtirishning sug'urta qiymat zanjiriga hamda risklarning sug'urtalanishiga ta'siri. The Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice, 43(3), 359–396. DOI: 10.1057/s41288-017-0073-0.
8. EIOPA — European Insurance and Occupational Pensions Authority. (2024). Yevropa sug'urta sektorini raqamlashtirish bo'yicha hisobot (Report on the digitalisation of the European insurance sector). Frankfurt am Main: EIOPA.
9. OECD — Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. (2024). Global sug'urta bozori tendensiyalari 2024 (Global Insurance Market Trends 2024). Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/5b740371-en.
10. Stricker, L., Wagner, J., va Zeier Röschmann, A. (2023). Raqamli platforma iqtisodiyoti sharoitida sug'urta vositachiligining kelajagi. Journal of Risk and Financial Management, 16(9), 381.
11. The Geneva Association. (2025). Sug'urta mijoz yo'lida generativ sun'iy intellekt (Gen AI in the insurance customer journey). (Tahliliy hisobot). Geneva: The Geneva Association.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100